URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE
УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV: INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR TAJRIBALAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “AN INTEGRATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES: INNOVATIONS AND BEST PRACTICES”

“ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ИННОВАЦИИ И ЛУЧШИЕ ПРАКТИКИ” МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

1-qism

Urgench, Uzbekistan, 2026

HURMATLI
DEAR
УВАЖАЕМЫЙ(АЯ)

Sizni **“Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz.

We invite you to participate in the international scientific and practical conference **“An integrative approach to teaching foreign languages: innovations and best practices”.**

Приглашаем вас принять участие в международной научно-практической конференции на тему **«Интегративный подход к обучению иностранным языкам: инновации и лучшие практики ».**

ANJUMAN O‘Z ISHINI 2026-YILNING
15-APREL KUNI SOAT 10:00 DA BOSHLAYDI
RO‘YXATGA OLISH SOAT 9:00 DAN BOSHLANADI.

THE CONFERENCE WILL START
ON APRIL 15, 2026 AT 10:00 A.M.
REGISTRATION STARTS AT 9:00 A.M.

КОНФЕРЕНЦИЯ НАЧНЕТСЯ
15 АПРЕЛЯ 2026 ГОДА В 10:00.
РЕГИСТРАЦИЯ НАЧИНАЕТСЯ В 9:00.

MANZIL: Xorazm viloyati, Urganch shahri, UrDU ARM binosi
ADDRESS: Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
АДРЕС:

ID Conference: **870 1198 1210**
Code: **348637**

UO‘K 622.532
KBK 81.2

“**Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar**” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-qism [Matn]: to‘plam / jamoa -Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2026. – 736 b.

Mas’ul muharrirlar: Radjapova F.A. – f.f.n., dotsent
Samandarov M. I. – dotsent v.b
Eshchanova X.X. - p.f.f.d (PhD) dotsent v.b
Kutlimuratova N. - p.f.f.d (PhD)

Tahrir hay’ati raisi: Abdullayev D.N.-t.f.d., professor

Tahrir hay’ati: Xujamuratov U.R – t.f.f.d, (PhD) dotsent
Xajiyeva D. A. – f.f.f.d, dotsent
Eshchanova G. X . – f.f.f.d., dotsent v. b.
Yakubova Sh. E. – p.f.f.d (Phd) dotsent
Atajanova D.U. - p.f.f.d (PhD) dotsent
Absalamov T.T. - p.f.f.d (PhD) dotsent

Taqrizchilar: Xodjaniyazov S. U. – p.f.d., professor
Abdazimov A. A. – p.f.f.d. (PhD)

Prezidentimizning 2022-yil 29-yanvardagi **“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsion loyiha va tashabbuslarni qo‘llab — quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasida qator vazifalar belgilangan. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2026-yil **15-aprel** kuni Urganch davlat pedagogika institutida **“Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat. To‘plamdan joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar.

ISBN 978-9910-5156-9-9
© “Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar. 1-qism”
© “Xorazm” nashriyoti, 2026.

1 SHO‘BA

CURRENT ISSUES OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION.

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘gli
Urganch davlat pedagogika instituti rektori v.b.,
tarix fanlari doktori, professor

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, muhtaram olimlar, professor-o‘qituvchilar, aziz mehmonlar!

Avvalo, Sizlarni Urganch davlat pedagogika instituti nomidan “Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman boshlanishi bilan samimiy muborakbod etishga ijozat bergaysiz. Ushbu nufuzli anjuman ilm-fan va ta’lim sohasida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Dear participants of the conference, respected scholars, professors, teachers, and distinguished guests!

First of all, please allow me, on behalf of Urgench State Pedagogical Institute, to warmly welcome you to the International Scientific and Practical Conference on “Integrative Approach in Teaching Foreign Languages: Innovations and Best Practices.” I would like to emphasize that this conference plays an important role in the development of science and education.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallik bilan kechayotgan bir davrda xorijiy tillarni mukammal o‘rganish va samarali o‘qitish masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. Ayniqsa, integrativ yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, fanlararo hamkorlikni kuchaytirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Today, in the era of rapid globalization, the issue of effective learning and teaching foreign languages has become more important than ever. In particular, applying integrative approaches, strengthening interdisciplinary cooperation, and introducing innovative pedagogical technologies are key priorities for improving the quality of education.

Mazkur anjumanning Filologiya fakulteti tomonidan tashkil etilayotgani alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu fakultet jamoasi xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi, tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya yo‘nalishlarida salmoqli ilmiy natijalarga erishib, malakali mutaxassislarni tayyorlashda munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

It is worth noting that this conference is organized by the Faculty of Philology. The faculty has achieved significant results in the fields of language teaching methodology, linguistics, translation studies, and intercultural communication, and continues to contribute greatly to training qualified specialists.

Bugungi anjuman o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat ilmiy fikr almashish maydoni, balki turli mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ilg‘or pedagogik g‘oyalarni muhokama qilish hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi muhim platformadir. Ishonchim komilki, ushbu muloqotlar natijasida xorijiy tillarni o‘qitishning yangi samarali modellari va metodlari shakllanadi.

This conference is not only a platform for academic discussion, but also an opportunity to learn from international experience, exchange advanced ideas, and apply innovative approaches in practice. I strongly believe that discussions will lead to the development of new and effective models and methods in foreign language teaching.

Shuningdek, bugungi kunda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish hamda interaktiv metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, anjuman doirasida ilgari suriladigan g‘oyalar va takliflar katta amaliy ahamiyatga ega

bo‘lishiga ishonaman.

Today, it is very important to integrate digital technologies into education, use artificial intelligence tools effectively, and apply interactive methods to increase students’ interest in learning languages. In this regard, I believe that the ideas and proposals presented at this conference will have strong practical value.

Hurmatli ishtirokchilar!

Bugungi uchrashuvimiz ilm-fan, ta’lim va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Sizlarning boy tajribangiz va ilmiy yondashuvlaringiz ushbu anjumanning muvaffaqiyatli o‘tishiga katta hissa qo‘shadi.

Dear participants!

Today’s meeting is an important step toward strengthening science, education, and international cooperation. Your valuable experience and academic contributions will greatly support the success of this conference.

Fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan barcha xorijiy va mahalliy olimlarga, hamkor tashkilotlarga hamda ushbu tadbirni tashkil etishda faol ishtirok etgan Filologiya fakulteti jamoasiga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

I would like to express my sincere gratitude to all international and local scholars, partner organizations, and the Faculty of Philology for their efforts in organizing this important event.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, ilmiy faoliyatingizda yuksak muvaffaqiyatlar, izlanishlaringizda omad tilayman. Anjuman ishiga esa samarali muhokamalar va mazmunli natijalar tilab qolaman.

I wish all of you good health, great success in your academic activities, and good luck in your research. I also wish this conference productive discussions and meaningful outcomes.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Thank you for your attention!

Madraximova Feruza Ruzimbayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Avvalo, sizlarni Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti nomidan “Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda chin dildan qutlashdan mamnunman. Mazkur nufuzli anjuman ilm-fan va ta’lim sohasida samarali muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilishiga ishonaman.

Dear participants of the conference, distinguished guests!

First of all, on behalf of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, I am pleased to warmly welcome you to the International Scientific and Practical Conference on “Integrative Approach in Teaching Foreign Languages: Innovations and Best Practices.” I believe this conference will serve as an effective platform for academic dialogue.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni mukammal o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash, ilm-fan va innovatsiyalarni

rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ta’lim tizimida zamonaviy, samarali va integrativ yondashuvlarni keng joriy etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

In today’s era of globalization, mastering foreign languages is not only important for personal development, but also for strengthening international cooperation and advancing science and innovation. Therefore, introducing modern, effective, and integrative approaches in education is one of the key priorities today.

Mazkur anjuman xorijiy tillarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish hamda xalqaro tajribalarni o‘rganish va almashish uchun muhim ilmiy platforma hisoblanadi. Ishonchim komilki, bu yerda bildiriladigan fikr-mulohazalar va ilmiy natijalar ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

This conference serves as an important scientific platform for applying advanced pedagogical technologies, implementing innovative methods, and exchanging international experience. I strongly believe that the ideas and research results shared here will contribute to improving the quality of education.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda interaktiv metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, anjuman doirasida ilgari suriladigan taklif va tashabbuslar katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Today, integrating digital technologies into the educational process, effectively using artificial intelligence, and applying interactive methods play a crucial role in increasing students’ interest in learning languages. In this regard, the ideas and initiatives presented at this conference will have strong practical importance.

Anjumanda ishtirok etayotgan nufuzli olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Sizlarning ilmiy izlanishlaringiz va tajribangiz yosh avlodni har tomonlama yetuk va raqobatbardosh mutaxassislar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

I would like to express my sincere gratitude to all distinguished scholars, professors, researchers, and practitioners participating in this conference. Your academic work and experience play an important role in educating a competent and competitive younger generation.

Barchangizga mazkur anjuman ishida muvaffaqiyat, samarali ilmiy munozaralar va yangi g‘oyalar tilayman. Anjumanimiz mazmunli, samarali va natijador o‘tsin!

I wish you all success in this conference, productive discussions, and new ideas. May our conference be meaningful, effective, and successful.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Thank you for your attention!

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘gli
Urganch davlat pedagogika instituti rektori v.b.,
tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuvning nazariy asoslari, uning pedagogik mohiyati hamda amaliyotda qo‘llash usullari keng tahlil qilinadi. Integrativ yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi rivojlanishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, fanlararo integratsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi orqali samarali natijalarga erishish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, xorijiy til o‘qitish, fanlararo integratsiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik innovatsiya, madaniyatlararo muloqot, interaktiv metodlar.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat ta’limiy ehtiyoj, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylangan. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ilm-fan sohasidagi integratsiya jarayonlari til bilishni zamonaviy mutaxassisning ajralmas kompetensiyasiga aylantirmoqda. Shu sababli xorijiy tillarni o‘qitish tizimi ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘proq grammatik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi kunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llay olish qobiliyatiga qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida integrativ yondashuvni taqozo etadi. Integrativ yondashuv o‘quv jarayonini kompleks tizim sifatida ko‘rib, til o‘rganishni boshqa fanlar, madaniyat va hayotiy tajribalar bilan uzviy bog‘lashni nazarda tutadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik nazariyalar - konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va kommunikativ metodika - integrativ yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi. Bu esa o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, ularning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Asosiy qism

Integrativ yondashuvning pedagogik mohiyati

Integrativ yondashuv ta’lim jarayonida turli bilim sohalarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Xorijiy til o‘qitishda integratsiya tilni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Mazkur yondashuv doirasida xorijiy tilni samarali o‘rgatish bir qator muhim kompetensiyalarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Avvalo, lingvistik kompetensiya o‘quvchining til tizimini - grammatika qoidalari, leksik birliklar, fonetika va sintaktik tuzilmalarni egallashini anglatadi. Bu komponent tilning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi va nutqni to‘g‘ri shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya o‘quvchining real

muloqot jarayonida til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya orqali o‘quvchi o‘z fikrini aniq, ravon va samarali tarzda ifodalashni o‘rganadi.

Bundan tashqari, sotsiolingvistik kompetensiya tilni turli ijtimoiy vaziyatlarda mos ravishda qo‘llashni nazarda tutadi. Ya’ni, nutq jarayonida suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei, madaniyati va muloqot sharoitini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tilni nafaqat to‘g‘ri, balki o‘rinli qo‘llashni ta’minlaydi. Yana bir muhim komponent - madaniyatlararo kompetensiya bo‘lib, u o‘quvchining o‘rganilayotgan tilga oid madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy normalarni tushunish hamda ularga hurmat bilan yondashish qobiliyatini shakllantiradi.

Ushbu kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyasi natijasida o‘quvchi tilni nafaqat nazariy jihatdan egallaydi, balki uni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llay oladigan, madaniyatlararo muloqotga tayyor bo‘lgan shaxs sifatida shakllanadi. Natijada, integrativ yondashuv o‘quvchining intellektual, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda ta’minlaydi.

Fanlararo integratsiya va uning imkoniyatlari

Fanlararo integratsiya xorijiy til darslarini mazmunan boyitadi. Masalan:

- tarix mavzulari orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni xorijiy tilda muhokama qiladi;
- geografiya orqali mamlakatlar haqidagi bilimlarini kengaytiradi;
- adabiyot orqali esa tilning badiiy imkoniyatlarini o‘rganadi.

Bunday integratsiya o‘quvchilarning bilimlarini real hayot bilan bog‘laydi. Natijada ular tilni alohida fan sifatida emas, balki amaliy vosita sifatida qabul qiladi.

Integrativ yondashuv asosida qo‘llaniladigan metodlar

Amaliyotda integrativ yondashuvni samarali tatbiq etish uchun bir qator zamonaviy pedagogik metodlardan keng foydalaniladi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammo yechish va muloqot qilish ko‘nikmalarini ham kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning) metodida o‘quvchilar muayyan mavzu doirasida mustaqil yoki jamoa shaklida tadqiqot olib boradi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va yakunda o‘z loyihasini xorijiy tilda taqdim etadi. Bu jarayon o‘quvchilarning izlanish faoliyatini faollashtirib, ularni axborotni tanlash, qayta ishlash va taqdim etish kabi muhim akademik ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Shu bilan birga, mazkur metod o‘quvchilarda javobgarlik hissi, vaqtni boshqarish va jamoaviy hamkorlik kabi kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) esa o‘quvchilarga oldindan tayyor bilim berish o‘rniga, ularni muammoli vaziyatga duch keltirish orqali mustaqil fikrlashga undaydi. Bunda o‘quvchilar berilgan muammoni tahlil qiladi, turli yechim variantlarini ishlab chiqadi va ularni xorijiy tilda asoslab beradi. Ushbu metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, o‘quvchilarning nutqiy faolligini ham oshiradi. Ayniqsa, real hayotga yaqin vaziyatlarning qo‘llanilishi o‘rganilayotgan tilni amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi.

Rolli o‘yinlar (Role Play) metodi ham integrativ yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metod orqali o‘quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarib, real hayotiy muloqot vaziyatlarini modellashtiradi. Masalan, mehmonxonada suhbat, savdo jarayoni yoki ish intervyusi kabi holatlar sahnalashtiriladi. Natijada o‘quvchilar o‘z nutqini erkin ifodalashga, dialog va monologlarni tabiiy tarzda qurishga o‘rganadi. Ushbu metod ayniqsa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, o‘quvchilarning psixologik to‘siqlarini kamaytiradi.

Bundan tashqari, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi til va boshqa fanlarni integratsiyalash orqali o‘qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda o‘quvchilar, masalan, geografiya, biologiya yoki tarix kabi fanlarni xorijiy tilda o‘rganadi. Natijada til o‘rganish jarayoni mazmun bilan boyitiladi va o‘quvchilar tilni real bilimlarni egallash vositasi sifatida qabul

qiladi. CLIL yondashuvi o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki fanlararo bilimlarini ham rivojlantirib, ularning akademik saviyasini oshiradi.

Umuman olganda, ushbu metodlarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, uning bilim olish jarayonidagi faolligini, motivatsiyasini va natijadorligini ta’minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish bilan birga, ularning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchini faol subyektga aylantiradi, uni mustaqil fikrlashga va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashga o‘rgatadi.

Kelgusida ushbu yondashuvni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, metodik bazani boyitish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev (2017). Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Shavkat Mirziyoyev (2020). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent.
3. Shavkat Mirziyoyev (2019). Oliy Majlisga Murojaatnoma. Toshkent.
4. David Nunan (2003). Practical English Language Teaching. New York: McGraw-Hill.
5. Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
6. H. Douglas Brown (2007). Principles of Language Learning and Teaching. New York: Pearson Education.
7. Jeremy Harmer (2007). How to Teach English. Harlow: Pearson Longman.
8. Do Coyle, Philip Hood & David Marsh (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Lev Vygotsky (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Jean Piaget (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
11. Rod Ellis (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.
12. Council of Europe (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Cambridge: Cambridge University Press.
13. UNESCO (2013). *ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications*. Paris.
14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2021). Xorijiy tillarni o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar to‘plami. Toshkent.

PERSPECTIVES OF CORPUS-BASED APPROACH IN TEACHING ENGLISH FOR ADULT LEARNERS IN UZBEKISTAN

Djumabaeva Jamila Sharipovna,
National University of Uzbekistan
DSc, professor

Abstract. This article explores the perspectives of the corpus-based approach in teaching English to adult learners in Uzbekistan. It examines the theoretical foundations of corpus linguistics and its pedagogical significance within modern language education. Special attention is given to data-driven learning, authentic language exposure, and the role of digital corpora in enhancing linguistic competence. The study highlights the advantages of corpus-based instruction, including improved vocabulary acquisition, grammatical accuracy, learner autonomy, and communicative competence. The paper also discusses practical applications of corpus tools in vocabulary teaching, grammar instruction, error analysis, and curriculum design. Furthermore, it addresses the challenges associated with implementing corpus-based methodologies in Uzbekistan, such as limited technological resources, insufficient teacher training, and the lack of locally developed corpora. The research concludes that integrating corpus linguistics into English language teaching can significantly improve the effectiveness of adult education and align national educational practices with international standards.

Keywords: corpus linguistics; corpus-based approach; data-driven learning; English language teaching; adult learners; EFL; authentic materials; digital education; learner autonomy.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda katta yoshdagi tinglovchilarga ingliz tilini o‘qitishda korpusga asoslangan yondashuvning istiqbollari tahlil qilinadi. Unda korpus lingvistikasining nazariy asoslari hamda zamonaviy til ta’limi tizimidagi pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: korpus lingvistikasi; korpusga asoslangan yondashuv; ma’lumotlarga asoslangan ta’lim; ingliz tilini o‘qitish; katta yoshdagi o‘quvchilar; raqamli ta’lim; autentik materiallar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы корпусно-ориентированного подхода в обучении английскому языку взрослых обучающихся в Узбекистане. Анализируются теоретические основы корпусной лингвистики и её педагогическое значение.

Ключевые слова: корпусная лингвистика; корпусно-ориентированный подход; обучение на основе данных; преподавание английского языка; взрослые обучающиеся; цифровое образование.

INTRODUCTION

In recent decades, the teaching of English as a foreign language has undergone significant transformation due to globalization, digitalization, and the growing demand for effective communication. In Uzbekistan, educational reforms emphasize improving foreign language instruction, particularly for adult learners. One of the most promising innovations in this field is the corpus-based approach, which relies on authentic language data derived from electronic corpora. This article examines the prospects, advantages, and challenges of implementing corpus-based methodologies in teaching English to adult learners in Uzbekistan.

Theoretical Foundations of Corpus-Based Language Teaching

Corpus linguistics is the study of language through large, structured collections of texts. It provides insights into real-life language use and enables educators to analyze frequency, collocations, and grammatical patterns. The theoretical basis of corpus-based teaching is closely related to data-

driven learning (DDL), where learners independently explore linguistic data. This approach aligns with communicative and learner-centered methodologies and supports evidence-based language instruction.

Importance for Adult Learners

Adult learners are typically goal-oriented and benefit from practical and relevant learning experiences. Corpus-based instruction provides authentic materials and promotes analytical thinking, making it particularly effective for this group. It enhances vocabulary acquisition, grammatical accuracy, and learner autonomy while fostering critical thinking and independent learning skills.

Application in Uzbekistan

The integration of corpus linguistics into English language teaching in Uzbekistan is gradually developing. International corpora such as the British National Corpus (BNC) and the Corpus of Contemporary American English (COCA) are widely used in higher education. Corpus-based approaches assist in vocabulary teaching, grammar instruction, error analysis, and curriculum development, ensuring that learners acquire practical and authentic language skills.

Advantages of Corpus-Based Approach

The corpus-based approach offers numerous benefits, including authenticity, frequency awareness, learner autonomy, improved accuracy, and technological integration. It supports digital learning environments and aligns with global educational standards, making it particularly relevant for modern language education.

Challenges and Limitations

Despite its advantages, the implementation of corpus-based methodologies in Uzbekistan faces several challenges. These include limited technological resources, insufficient teacher training, lack of locally developed corpora, and limited integration into educational curricula. Addressing these challenges is essential for the successful adoption of corpus-based teaching practices.

Future Perspectives

The future of corpus-based language teaching in Uzbekistan is promising. Continued educational reforms, digitalization, and international collaboration will facilitate the development of national learner corpora and promote the integration of corpus tools into English language education. These advancements will enhance the effectiveness of adult learning and align national standards with global practices.

CONCLUSION

The corpus-based approach represents a significant innovation in teaching English to adult learners in Uzbekistan. By providing authentic language data and promoting learner autonomy, it enhances the quality and effectiveness of language education. With adequate institutional support and technological development, corpus linguistics has the potential to transform English language teaching and contribute to the advancement of adult education in Uzbekistan.

References

1. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
2. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
3. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
4. Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
5. Granger S. Learner Corpora in Language Teaching and Learning // Annual Review of Applied Linguistics. – 2003. – Vol. 23. – P. 123–145.
6. Lado R. Linguistics across Cultures. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957.
7. McCarthy M. Touchstone: From Corpus to Course Book. – Cambridge: Cambridge University

Press, 2004.
8. Uzbekistan. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5117. – Tashkent, 2021.

INTEGRATIVE MODEL OF PEDAGOGICAL CULTURE QUALITIES AND REFLECTIVE-METHODOLOGICAL MECHANISMS FOR ITS DEVELOPMENT

Radjapova Feruza Abdullayevna
Dean of the Faculty of Philology,
Urgench State Pedagogical Institute,
PhD, Associate Professor

Abstract. This article examines the essence and content of pedagogical culture, its structural components, and its integrative model based on a scientific and theoretical approach. The role of reflective and methodological mechanisms in the development of pedagogical culture, their interrelation, and their impact on the effectiveness of the educational process are analyzed. In the course of the research, a systematic approach to the formation and development of pedagogical culture has been developed, and practical recommendations have been proposed.

Keywords: *pedagogical culture, integrative model, reflection, methodological mechanisms, professional competence, quality of education, pedagogical activity.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik madaniyatning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda integrativ modeli ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Pedagogik madaniyatni rivojlantirishda reflektiv va metodik mexanizmlarning o‘rni, ularning o‘zaro uyg‘unligi hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pedagogik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga doir tizimli yondashuv ishlab chiqilgan hamda amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik madaniyat, integrativ model, refleksiya, metodik mexanizmlar, kasbiy kompetensiya, ta’lim sifati, pedagogik faoliyat.*

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность и содержание педагогической культуры, её структурные компоненты, а также интегративная модель на основе научно-теоретического подхода. Проанализирована роль рефлексивных и методических механизмов в развитии педагогической культуры, их взаимосвязь и влияние на эффективность образовательного процесса. В ходе исследования разработан системный подход к формированию и развитию педагогической культуры, а также предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: педагогическая культура, интегративная модель, рефлексия, методические механизмы, профессиональная компетентность, качество образования, педагогическая деятельность.

Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv: innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar

Zamonaviy ta’lim tizimi tub o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyat ehtiyojlarining ortib borishi pedagog faoliyatiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki shaxsni rivojlantiruvchi, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi va ta’lim jarayonini samarali tashkil etuvchi yetakchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik madaniyat tushunchasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatkasb etadi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va shaxsiy sifatlarning yaxlit tizimini ifodalaydi. Uni chuqur o‘rganish va samarali rivojlantirish pedagogik faoliyat sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu bois pedagogik madaniyatni integrativ model asosida tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, pedagogik kuzatuv hamda reflektiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik madaniyat tushunchasini ochishda zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy qarashlariga tayanildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi hamda ularning integratsiyasi asosida yagona model ishlab chiqildi. Reflektiv va metodik mexanizmlarning mazkur modeldagi o‘rni alohida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagogik madaniyat murakkab va ko‘p komponentli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy tarkibiy qismlariga kognitiv, aksiyologik, faoliyat, kommunikativ va reflektiv komponentlar kiradi. Kognitiv komponent pedagogning nazariy bilimlari va kasbiy tayyorgarligini ifodalaydi. Aksiyologik komponent esa pedagogning qadriyatlari, e’tiqodlari va kasbga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Faoliyat komponenti o‘qitish metodlari va texnologiyalarini samarali qo‘llash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ komponent pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlaydi. Reflektiv komponent esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi pedagogik madaniyatning integrativ modelini shakllantiradi. Ushbu model pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etish, uning samaradorligini oshirish va pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Integrativ modelning muhim jihati shundaki, u pedagogik madaniyatni statik holatda emas, balki dinamik jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Bu esa pedagogning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi va rivojlanishini talab etadi.

Pedagogik madaniyatni rivojlantirishda reflektiv mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Refleksiya pedagogga o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Reflektiv jarayonlar orqali pedagog o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqadi, xatolar ustida ishlaydi va yangi yondashuvlarni shakllantiradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning oshishiga olib keladi.

Metodik mexanizmlar esa pedagogik madaniyatni rivojlantirishning amaliy asosini tashkil etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tajriba almashish va hamkorlik faoliyati esa pedagogik madaniyatni boyitadi.

